



UDK: 398.1 (575.1)

*Dilafruz QALANDAROVA,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*  
*E-mail: d.kalandarova2017@yandex.ru*

*ToshDO'TAU dotsenti, PhD I.Sayitqulov taqrizi asosida*

### A LOOK AT THE CREATIVE WORK OF KARL REICHL

Annotation

This article discusses the life, creative work, description and classification of his works, and studies of Karl Reichl, a professor at the University of Bonn in Germany, a member of the Rhine-Westphalia Academy, and an honorary professor at Nukus State University. His scientific research interests include the study of epic works, oriental studies, Turkology, manas studies, translation, and Kyrgyz studies.

**Key words:** Folklore, scientist, classification, research, expedition, translation, Turkology, comparative study.

### ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО КАРЛА РАЙХЛА

Аннотация

В статье рассматриваются жизнь, творчество, описание и классификация произведений, а также деятельность профессора Боннского университета (Германия), члена Рейнско-Вестфальской академии, почётного профессора Нукусского государственного университета Карла Райхля. В сферу его научных интересов входят изучение эпических произведений, востоковедение, тюркология, манасоведение, перевод и кыргызскоеведение.

**Ключевые слова:** Фольклор, ученый, классификация, исследование, экспедиция, перевод, тюркология, сравнительное изучение.

### KARL RAYXL IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilmiy izlanishlari sohasi epik asarlar tadqiqi, sharqshunoslik, turkologiya, manasshunoslik, tarjima, qirg'izshunoslik yo'nalishlariga bag'ishlangan Germaniyaning Bonn universiteti professori, Reyn-Vestfaliya akademiyasi a'zosi, Nukus davlat universitetining faxriy professori Karl Rayxl (Karl Reichl)ning hayoti, ijodiy faoliyati, uning yaratgan asarlari tavsifi va tasnifi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Folklor, olim, tasnif, tadqiqot, ekspeditsiya, tarjima, turkologiya, qiyosiy tadqiq.

**Kirish.** Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek folklori namunalari qadimdan hozirgacha ko'plab Yevropa mamlakatlari olimlarining alohida diqqatini tortib, ularning e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ammo Herman Vamberi, Anna Luiza Strong, Korlis Lamont, G.M.Shulbrayt, N.Chadvik, Idris Shoh, M.Boura, Hasan Paksoy, Karl Rayxl, Volter Feldman, M.Petersen, F.Adams, Daniel Priori kabi olimlarning tarjima va tadqiqotlari hali yetarli darajada o'rganilmagan [1]. Shu bilan birga o'zbek tarjimashunosligida R.Fayzullayeva, Sh.Ro'ziyev, Y.Nurmurodov, B.Shamsiyeva, X.Ro'zimboyev, Z.Jumaniyozov, B.Suvonqulov, R.Shirinova, M.Jo'rayeva, H.Yusupova, U.Yo'ldoshev, R.Qosimova, O.Fayzulloyev tadqiqotlarida sohaga oid ayrim fikrlar bildirib o'tilgan [7].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati va san'atiga qiziqish Yevropada ko'pdan mavjud. Uning tarixi juda uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu qiziqish doimiy tadrjijiy takomil topib borgan. Aytaylik, Turkiston tarixi, qadimgi urf-odat va an'analari, folkloriga oid materiallarni to'plagan H.Vamberining tajribalari keyinchalik N.Ostroumov, A.Borovkov, M.Gavrilov, M.Andreyev, R.Radlov, V.M.Jirmunskiy, V.Feldman, K.Rayxl kabi olimlar qiziqishi uyg'onishiga ham turtki bo'lgani ma'lum.

AQShning Pensilvaniya universiteti professori Volter Feldman 1980-yil Kolumbiya universitetida "XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida o'zbek xalq og'zaki dostonlari"

mavzusidagi PhD dissertatsiyasini yoqlagan. Uning tadqiqotida "Alpomish" dostonining Sherobod dostonchilik maktabidagi "Alpomishning qaytishi" parchasining ikki varianti: o'zbek xalq og'zaki dostonining hozirgi ijro jarayonlari haqida fikr yuritilgan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda doston nomi bilan mashhur bo'lgan o'zbek og'zaki she'riy janri matn tarkibi va uning nazmiy uslubi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qilingan. To'rtta qisqa og'zaki she'riy matnlarga e'tibor qaratilgan. Ular 1990-yilning may va 1991-yilning iyun oylarida To'ra Mirzayev rahbarlik qilgan folklor ekspeditsiyasi davrida Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida bitta bard (baxshi, olim tadqiqotlarida baxshilarni bard nomi bilan atagan – D.Q.) Qahhor Rahimov tomonidan kuylangan.

Mutaxassisligi bo'yicha ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lgan Karl Rayxl taqdir taqazosi bilan 1958-yilda V.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning «O'zbek qahramonlik eposi» degan kitobining doktor Fleysler tomonidan nemis tilida o'girilgan hamda Germaniyada chop etilgan qisqacha bayoni bilan tanishadi. Xuddi shu tanishuv unga yangi bir sohani egallash uchun turtki bo'ladi. Mana shu kitob uning taqdirini tubdan o'zgartirib yuboradi. Shundan so'ng olim o'zbek folklori, tarixi, urf-odat va an'analariga qiziqib, shu qiziqishi tufayli o'zbek folklori bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Dastavval mustaqil ravishda o'zbek tilini o'rganadi. Keyinchalik bu o'rganganlarini tarjima qilish ishlari orqali mustahkamlab boradi.

Akademik To'ra Mirzayev aytganidek, "Karl Rayxl qandaydir siyosiy maqsadlar yoki o'tkinchi bir havas bilan o'zbek folklorini o'rganishga kirishgan emas, balki uni bu yo'lga o'zining qiyosiy tekshirishlariga keng imkoniyat ochishga intilishi, qadimgi grek, nemis, fransuz, kelt eposlarini har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj undadi. Uning tadqiqotlaridagi uzviylik va uzluksizlik shunday xulosa chiqarishga to'la asos beradi" [11].

**Tahlil va natijalar.** Biz ham olim bilan shaxsan uchrashib tanishib, undan "Aynan Markaziy Osiyo xalqlari folklorini o'rganishingizning sababi nimada?", deb so'raganimizda, u shunday javob berdi: "Albatta, buning ham ilmiy, ham shaxsiy tomonlari bor. Dastlab men G'arb adabiyoti va Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotini qiyosiy tarzda o'rganmoqchi edim. Aslida turk xalqlari og'zaki ijodiga qiziqishim bor edi".

Mazkur qiziqishi sababli olim dastlab shu davlatlarga borishni ko'zlagan. U bormoqchi bo'lgan mamlakatning tilini bilishi, o'sha yurt ilm kishilari va og'zaki bayon qiluvchilari bilan aloqada bo'lishi lozimligini anglab, zudlik bilan til o'rganishga kirishgan. "...va men bu borada juda omadliman. Chunki, 1981-yilda men birinchi bor O'zbekistonga tashrif buyurdim. Bo'kada Chori shoir (baxshi)dan "Alpomish" va "Ravshan" dostonlarini yozib olishga muvaffaq bo'ldim. Aynan shu tarzda men og'zaki ijodga kirib keldim. Ijro jarayonida baxshi sizga hech narsani biror joyga qarab o'qib bermaydi, balki ijrosi (mimikalari) bilan o'z auditoriyasini sehlab oladi", – deydi olim u bilan bo'lgan suhbatimizda.

Karl Rayxl tadqiqotlarini dastlab o'zbek folkloriga qaratganini aytadi. "O'zbek folklorini o'rganish jarayoni bilan bog'liq hodisalar, davrlar mening hayotimning bir tarixiga aylanib qolgan. Keyinchalik qoraqalpoq, turkman, qirg'iz xalqlari xalq og'zaki ijodiga ham qiziqishim ortdi. "Edige", "Manas" dostonlarini ingliz va nemis tillariga o'girdim. Bularning ichidan qoraqalpoq folkloriga mehrim o'zgacha va o'ylashimcha, tadqiqotlarimning ham kattagina qismi aynan shu xalq og'zaki ijodiga tegishli".

Umuman olganda, Karl Rayxlning o'zbek folkloriga qiziqishi ham tarjimonlik, ham tadqiqotchilik faoliyati orqali namoyon bo'ladi.

Germaniyaning Bonn universiteti professori, Reyn-Vestfaliya akademiyasi a'zosi, Nukus davlat universitetining faxriy professori Karl Rayxl (Karl Reichl) 1943-yilning 4-iyul kuni Germaniyadagi Bavariya viloyatiga qarashli Vayden shahrida tug'ilgan.

1963–1968-yillarda Myunxen universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. 1970-yilda Angliyaning Kembrij universiteti aspiranturasini tamomlagan. 1971-yilda falsafa fanlari bo'yicha fan doktori, 1977-yilda falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi va filologiya fanlari doktori ilmiy darajalariga erishdi. 1977-yilning o'zidayoq professor unvonini olishga muvaffaq bo'lgan.

Taniqli tarixchi va folklorshunos olim Solk Gundula uning iqtidorli, izdosh shogirdlaridan biri bo'lib, u Karl Rayxl haqida alohida kitob yaratgan.

1971-yilda filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Karl Rayxl shu yili o'zi tahsil olgan Myunxen universitetiga qaytib kelib, ingliz tili va adabiyoti fanidan dars bera boshlagan. 1977-yildan 1978-yilgacha u Boxum universiteti dotsenti lavozimida ishlagan. 1978-yildan boshlab dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi nufuzli ilm dargohlarining faxriy professori degan nomga sazovor bo'lgan. Jumladan, 1978-yili Bonn, 1990-yili mashhur Garvard universitetining professori, 1995-yili Parij, aynan shu yilda esa Nukus davlat universiteti faxriy professori unvoniga musharraf bo'lgan. 2008-yildan esa Bonn universitetida veteran

professor (xizmat ko'rsatgan professor) e'tirofi bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Ilmiy izlanishlari sohasi epik asarlar tadqiqi, sharqshunoslik, turkologiya, manasshunoslik, tarjima, qirg'izshunoslik yo'nalishlariga bag'ishlangan professor Karl Rayxl dunyoning turli ilmiy jurnal va to'plamlarida 90dan ortiq ilmiy maqolalarini e'lon qilgan. Ularning aksariyati o'rta asrlar tarixi, tilshunoslik, turkiy xalqlarning folklor merosi, ayrim shoirlar ijodi tadqiqiga bag'ishlangan. Karl Rayxlning dunyoning turli ensiklopediyalarida 60dan ortiq maqolalari nashr etildi. Olim 100dan ortiq ilmiy kitoblar muallifi. Shunga ko'ra, Karl Rayxl tadqiqotlari doirasini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Diniy poeziya tahlili va talqini. Karl Rayxl tadqiqotlarining bir qismi o'rta asrlar davrida yaratilgan adabiy manbalarni o'rganishga bag'ishlangan. U o'rta asrlar Angliya va Amerika adabiyotiga alohida qiziqish bilan qaradi. Shu qiziqishi tufayli 1971-yilda Myunxen universitetida o'rta asrlar adabiyoti bo'yicha doktorlik ilmiy darajasini oldi. Uning ushbu dissertatsion ishi mavzusi o'rta asrlar Angliya adabiyotining diniy she'riyat tadqiqiga bag'ishlangan. Olim tadqiqotini kitob holida 1973-yilda Myunxenda «O'rta asr ingliz poeziyasi» nomi bilan nashr qildirdi. Shuningdek, uning 1976-yilda Londonda chop etilgan «O'rta asrlardagi lotincha matn tadqiqi» kitobi ham bu jihatdan e'tiborni tortadi.

2. Yozma adabiyot namunalari til xususiyatlari tadqiqi. Bunga olimning Robert Grossetters ijodi bo'yicha olib borgan izlanishlarini misol qilish mumkin.

3. Mistik asarlar musiqasi bo'yicha tadqiqotlari. Karl Rayxl bu borada Richard Rollning mistik asarlari musiqasiga e'tibor qaratgan.

4. Tilshunoslikka oid ilmiy izlanishlari. Karl Rayxlning professorlik unvonini olish uchun yaratgan tadqiqoti bevosita tilshunoslik sohasiga aloqador. Uning lingvistikaga oid professorlik dissertatsiyasi mavzusi "Grammatika kategoriyasi va so'zni shakllantirish" deb nomlanadi. Bu tadqiqot kitob holida Tyubengen shahrida «Ingliz tili grammatikasi qonuniyatlari» nomi bilan 1982-yilda chop etilgan.

Karl Rayxl 1978-yildan 2008-yilgacha Bonn universiteti qoshidagi Ingliz tili, adabiyoti va san'atini o'rganish institutida o'rta asrlar adabiyoti va tarixiy tilshunoslik yo'nalishida professor lavozimida ishlagan. U tarixiy tilshunoslik bo'yicha butun yevropaga tanilgan ulkan olimdir. Tilshunoslikda erishgan shu kabi yuksak ilmiy yutuqlari sababli olim 2011-yilda Medisondagi Viskonsina universitetiga ingliz tili professori sifatida ishlashga taklif qilingan.

5. Qiyosiy adabiyotshunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlari. Karl Rayxl 1990-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Garvard universitetining Qiyosiy adabiyotshunoslik fakultetida va Yaqin sharq universitetida Tillar va madaniyatlar fakultetida professor lavozimida ishlash uchun taklif qilingan. 1995-yilda Fransiya poytaxti Parij shahridagi oliy amaliyot maktabiga ham o'qituvchilikka taklif qilingan va professor unvonida faoliyat yuritgan. 2007-yilda Isroil davlatida, Iyurusalimdagi yaxudiy universitetida, islomshunoslik va Yaqin sharq tadqiqotchiligi fakultetiga professor sifatida chaqirilgan. 2009-yilda esa Iyurusalimdagi yaxudiy universitetining qiyosiy adabiyotshunoslik fakultetida professor sifatida faoliyat olib borgan. Shuningdek, mana shu yilda AQShda Ijtimoiy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi bo'lib ishlagan. Olim mazkur faoliyatlarini natijasida «O'rta asrlardagi ingliz dostonlari lug'ati» (1993, Frankfurt), «Jahon adabiyotidagi nasr va nazmning uyg'un holatlari» (1997, Kembrij) kabi kitoblarini e'lon qilishga erishgan.

6. Folklorshunoslik: og'zaki adabiyot, turkiy xalqlar og'zaki ijodi, epik matn muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari. Bu borada olimning «Turkiy xalqlar qahramonlik

eposi» (1992, Nyu-York), «Og'zaki epik an'ana: uslub va shakllar» (2000, Nyu-York), «Turkiy xalqlar qahramonlik eposi haqida maqolalar» (2000, Nyu-York), «Epik ijod va musiqa» (2000, Berlin), «Alpomish» – o'zbek xalq qahramonlik eposi» (2002, Bonn) kabi qator ilmiy asarlari e'lon qilingan. Uning folklorshunoslikka oid tadqiqotlari boshqa sohalarga bag'ishlangan kitoblaridan ancha ko'pligiga qarab ham, olimning mazkur sohaga ayricha e'tibor va qiziqish bilan yondashganini bilsa bo'ladi. Bu olimning dunyoga mashhur, xususan, “Manas”, “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Ravshan”, “Edige” dostonlarni o'rganish borasidagi o'zlashtirgan tajribalarida ham yorqin kuzatiladi.

Karl Rayxlining «Alpomish» dostoni yuzasidan olib borgan izlanishlari uning «Alpomish» o'zbek qahramonlik eposi» kitobida jamlangan. Bu kitob Bonn da o'zbek va nemis tillarida bosilib chiqqan. Kitobdan asl matn, tarjima, tadqiqot hamda professor To'ra Mirzayevning «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» kitobining katta bir bo'limi joy olgan. Ushbu kitobning taqdimoti ham Bonn universitetida bo'lib o'tgan. Unda bevosita To'ra Mirzayev boshchiligidagi bir

guruh o'zbek olimlari, O'zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltayev va elchixonona xodimlari ishtirok etishgan.

**Xulosa va takliflar.** Karl Rayxl haqli e'tirof etganidek, o'zbek folklorshunoslarining birinchi galdagi vazifasi bu ulkan xazinani avlodlar uchun asrab qolish edi. “Hech mubolag'asiz aytamanki, bunday ulkan xazina kamdan kam xalqlarga nasib etadigan buyuk merosdir. Bu buyuk merosdan shu kunga qadar nashr etilganlari ummondan bir tomchi xolos”, – deydi olim.

Karl Rayxl O'zbekistonga kelganida bevosita To'ra Mirzayev ilmiy rahbarligida o'z tadqiqotlarini olib borgan. U 1988-yil yozida Toshkentdagi Adabiyot institutining Folklor bo'limida To'ra Mirzayev bilan ishlagan. Shu boisdan u taniqli o'zbek folklorshunos olimi To'ra Mirzayevni o'zi uchun ustoz va do'st deb bilgan. Akademik To'ra Mirzayev tomonidan yaratilgan «Alpomish dostonining o'zbek variantlari» va «Xalq baxshilarining epik repertuari» kabi asarlarini Karl Rayxl nafaqat o'zbek, balki dunyo xalqlari folklori va epik ijodiyotini o'rganishdagi qimmatli manba ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun olim o'z tadqiqotlarida mazkur kitoblardan keng foydalangan. Hatto ayrim o'rinlarini tarjima qilib, ulardan dunyo folklorshunoslari ham foydalanishini ko'zda tutgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Vambery A. Scenes from the East (Through the Eyes of a European traveler in 1860), Corvina, Kiads, - Budapest, 1979. – 418 p.;
2. Lamont C. The Peoples of the Soviet Union. – New York, 1946. – 229 p.;
3. Shah I. The Pleasantries of Incredible Mulla Nasrutdin. – London, 1974;
4. Bowra C. Heroic Poetry. London, 1961. – 808 p.;
5. Paksoy H.B. “Alpamysh” Central Asian Identity under Russian Rule”, USA, AACAR, 1989. – 683 p.;
6. Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.;
7. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АНРУз, 1972. – 225 с.;
8. Рузиев Ш. К вопросу узбекско-немецких литературных связях: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АНРУз, 1974. – 30 с.;
9. Нурмуродов Й. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АНРУз, 1983. – 192 с.;
10. Walter Feldman. “The Uzbek Oral Epic: Documentation of Late Nineteenth Century and Early Twentieth Century Bards.” ... Ph.D. Dissertation. – USA, 1980.;
11. Мирзаев Т. Карл Райхл – ўзбек фольклори тадқиқотчиси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №4. – Б.17-20;